



METAFORANI TASNIFIY O'RGANISH ASOSLARI

Suyarova Nargiza Yuldoshevna

Qarshi davlat universiteti

*Xorijiy tillar fakulteti, Fakultetlararo ingliz tili kafedrası dotsenti
Qarshi davlat universiteti professori Tursunali Jumayev taqrizi ostida,*

E-mail: suyarovanargiza567@gmail.com

Tel raqam: 91.458.81.00.

Annotatsiya: *Maqolada metafora va uning shakllanish tarixi, metaforani tasnifiy o'rganish va uni tadqiq etish masalasi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *metafora, sifat metaforalar, atributiv metafora, lisoniy (statik) metaforalar, nutqiy (dinamik) metaforalar.*

ОСНОВЫ КЛАССИФИКАЦИОННОГО ИССЛЕДОВАНИЯ МЕТАФОРЫ

Аннотация: *В статье рассматриваются история метафоры и ее формирования, классификация метафоры и вопрос ее изучения.*

Ключевые слова: *метафоры, качественные метафоры, атрибутивные метафоры, лингвистические (статические) метафоры, речевые (динамические) метафоры.*

FUNDAMENTALS OF THE CLASSIFICATION STUDY OF METAPHOR

Annotation: *The article discusses the history of metaphor and its formation, the classification of metaphor and the question of its study.*

Keywords: *metaphors, quality metaphors, attribute metaphors, linguistic (static) metaphors, speech (dynamic) metaphors.*

Bugungi kunda metaforani tasnifiy o'rganish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Dunyo tilshunosligida uni mavzuviy o'rganish, uslubiy tiplarini aniqlash, grammatik razryadlarini ajratish borasidagi ishlar alohida e'tiborga molik. Bu masalada o'zbek tilshunosligida ham arzigulik ishlar amalga oshirilmoqdaki, ularni shakllanayotgan lingvokulturologiya, lingvokognitologiya, struktur semantika kabi yo'nalishlarning yutuqlari sifatida e'tirof etmoq lozim. Biroq metaforaning grammatik razryadlari masalasida o'zbek tilshunosligida olib borilayotgan tadqiqotlar yetarli emas. Shu boisdan darslik va qo'llanmalarda metafora hodisasining ta'limiga doir mavzular doirasida asosan ot va sifat metaforalar

berilayotganligiga, boshqa turkum doirasidagi metaforalar, uning grammatik tadqiqi amalga oshirilmaganligi va bu borada lingvistik baza shakllanmaganligi sababli, chetlab o'tilayotganligining guvohimiz.

Sifat metaforalar konseptual metaforalar tizimida konsept (predmet/hodisa) ning nafaol belgisini ifodalaydi va uning shakllanish ssenariysi zahirida qiyoslash va o'xshatish yotadi.

Belgini anglatuvchi metaforalarni tavsifiy metaforalar ham deyish mumkin. Shu bilan birga, nomlash va ajratish vazifalari bunday metaforalarda yaxlitlanadi. Predmet/hodisani anglatuvchi metaforalar substansial metaforalar bo'lsa, belgi anglatuvchi metaforalarni atributiv metaforalar desa bo'ladi. Atributiv metafora mazmun mundariyasi muvofiq keladigan substansial metafora bilan, odatda, parallel ravishda namoyon bo'ladi. Bu dialektikaning atributdan xoli substansiyaning, substansiya dan xoli atributning mavjud bo'lmasligi haqidagi aksiomatik xarakterli metodologik asos bilan dalillanishi mumkin.

– Lison va nutqqa munosabati jihatidan sifat metaforalarni ikki guruhga ajratamiz:

- lisoniy (statik) metaforalar;
- nutqiy (dinamik) metaforalar.

Lisoniy (statik) metafora ijtimoiylashgan metafora, ularning uzual mohiyat kasb etganligi, izohli lug'atlarda maxsus pometalarni bilan berilganligi, ko'p o'rinlarda ko'chma belgisidan xoli holda tavsiflanishi kabilarni fikrimizga dalil qilib keltirishimiz mumkin.

Nutqiy (dinamik) metafora turg'unlashmagan va ijtimoiylashmagan, vujudga kelishidan jarayon bilan bog'langan, bunda uning hosil qilinishi va qo'llanishi faqat yakka individ bilan bog'liq, statiklashmaganligi esa asosiy belgilovchi xususiyati.

Nutqiy metafora – muallif nutqini individuallashtiruvchi muhim vositalardan. Belgi anglatuvchi metaforani semantik tahlil qilish borliqning lisoniy kartinasiga quyidagilar asosida baho berishga imkon yaratadi:

- hosila sememadan semantik siljishni aniqlash;
- valentlik o'zgarishi va voqelanishlarini muayyanlashtirish;
- so'zlovchining kayfiyatini anglash;
- muallifning intensiyasini uqish;
- tildagi ruhiyatni his etish va b.

Metafora nutqqa kirar ekan, ikkita vazifani bajarishga yo'naltiriladi:

matn hosil qilish va yaxlitlashtirishda qatnashadi;

matnning ta'sir kuchini oshiradi.

Asos ma'nosi "predmet" bo'lgan leksemalar ham ko'chma ma'noda qo'llanib, belgi anglatishga o'tishi mumkin. Bunda belgi anglatish lisoniylashgan bo'lishi ham, nutqiy darajada qolgan bo'lishi ham mumkin. "Predmet" ma'nosini anglatuvchi so'zning "belgi" ma'nosini ham ifodalashi turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Tadqiqotchi Nilufar Shirinova ta'kidicha, tilning borliq – tafakkur aloqasini o'ziga xos sistema sifatida aks ettirishiga qaramay, borliqdagi "predmetlik" va "belgi-xususiyat" qorishmasi tilda ham namoyon bo'ladi;

tilda“predmetlik” va“belgi-xususiyat” ma’nolarini alohida-alohida ifodalovchi vositalar ham, ularni qorishiq holda ifodalovchi vositalar ham, bir vaqtning o‘zida goh unisini, goh bunisini kuchaytiruvchi vositalar ham mavjud .

metaforik ma’no, uning emotsional – ekspressiv vazifasi, baholash qiymatini metaforizatsiyalashmagan ma’nodan ayricha talqin qilib bo‘lmaydi. Xullas, bunday ma’no garchi zotan, tabiatan metaforik bo‘lsa-da, ayni damda metaforik ma’no sifatida baholanishi maqsadga muvofiq emas. Metaforik ma’noning o‘z xususiyatini yo‘qotishi va yetakchilashuvi bosqichlarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

asos ma’noning passivlashishi;
hosila ma’noning faollashuvi;
asos ma’noning so‘nishi;
hosila ma’noning asosiy lashuvi.

Metaforik ma’noning asosiy ma’no maqomiga ega bo‘lishi uning metaforik emotsionallikdan mahrum bo‘lishi evaziga yuz beradi .

Metaforik ma’noda valentlik o‘zgarishining semantik asosi. Valentlik sintaktik aloqa, erkin nutqiy birikuvchilar sifatida namoyon bo‘lar ekan, bu semantikadagi o‘zgarishlar asosida kechadi. Leksema sememasidagi sifatiy yoki miqdoriy o‘zgarishlar birikuvchilar soni va sifatini ham o‘zgartirib yuboradi. Ayrim misollar keltiramiz.

O‘zbek tilida bo‘sh so‘zining bosh ma’nosi “fizik jihatdan qattiq ta’sir etmaydigan xususiyatga ega” ma’nosi hozirgi kunda ham yetakchi, asosiy ma’no. Bu ma’nosida u faqat predmet ma’noli so‘zlar bilan birikuvlar hosil qiladi: bo‘sh yer, bo‘sh yog‘ och kabi. Bo‘sh odam birikmasida ham bu valentlikning son jiahtdan o‘zgarmaganligi, sifat jihatdan yangilanganligini ko‘ramiz. Holbuki, u bu birikuvda ham biologik, ham psixologik sifatlarni namoyon qila oladi va ikki ma’noli hisoblanadi: “jismoniy jihatdan xom”; “fe’l-atvori qat’iyatli bo‘lmagan”: tez nobud bo‘ladigan: 1. Bu-ku mol, terisi qalin; joni bo‘sh qo‘y, echkilarimiz xam cho‘p tishlab, tuproq yalab, qishni xavoda o‘tkazishdi (“Mushtum”); 2. Bu orada Viktorga o‘xshagan joni bo‘shlar esa quyon bo‘lishdi (SH.G‘ulomov, Cho‘l betida). 3.Xotin kishining ko‘ngli bo‘sh bo‘ladi, ichida gap yotmaydi, deb qo‘rqan edi (S.Ahmad, Ufq). U ancha ishonuvchan, itoatgo‘y, ko‘ngli bo‘sh qizga o‘xshaydi. (Yoshlik”). Shu metaforik ma’no asosida ibora ham shakllanadi: 1.Uning og‘zi bo‘sh, gap aytib bo‘lmaydi unga. 2. Kattalarning ko‘zi mening chumchuqday o‘g‘limga, yana bir qancha og‘zi bo‘sh kambag‘allarga tikilibdi (Oybek, Tanlangan asarlar).

Leksema metaforik qo‘llanishda harakatning tarzini bildirishi mumkin va bunda uning valentligi ham sifat, ham miqdor jihatidan o‘zgaradi. Misollar: 1.Suxsur degan qush bo‘lar, Tortsam, pati bo‘sh bo‘lar (“Oq olma, qizil olma”) 2. Uning bir qism g‘o‘zasi suvdan qolib, qatqaloq bosgan ekan, yuziga solib: – Uzingiz xo‘b pishiq dehqonsiz-ku, odamlarga bo‘sh qarabsiz-da.. – deb yomon izza qildi (H.Nazir, Mayoq sari). 3. San bo‘sh xayol qilma, Man hech bir vaqt sandan ajralmam (Hamza). Uning bu valentligi asosida qo‘shma fe‘llar ham shakllanadi: 1. Kurashda qaytadi deb o‘ylaysanmi, axir, biz hali bo‘sh keladigan yigitlardan emasmiz (M.Qoriyev, Oydin kechalar) 2. Lekin endi To‘rtko‘z ham bo‘sh kelmadi (S.Anorboyev,

Hamsuhbatlar). 3. Odatda oftob bilan oshno kishi uncha-muncha kasalliklarga bo'sh kelmaydi.

Fe'l bilan tobe-hokimlik munosabatiga kirishganda bo'sh leksemasining faqat metaforik ma'nosidagi "belgi" semasi "predmet/hodisaning" emas, balki "harakatning" semasi bilan hamkorlik qiladi.

Qattiq belgi sifati ham o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanib, ot bilan hokim-tobelik munosabatiga kirishganda o'z va ko'chma ma'nolarda, fe'lga tobelanganda esa faqat metaforik ko'chma ma'nosi namoyon bo'ladi. Ot bilan bog'lanishidagi bosh ma'nosi voqelanishiga misollar: 1. Qattiq jismning kristall panjarasida atom yoki ion bo'lmagan bo'sh tugunlar hosil bo'ladi ("Politexnika lug'ati"). 2. Volfram – yuqori haroratda eriydigan, og'ir, juda qattiq och kulrang metall, Mendeleyev davriy sistemasining VI guruhiga mansub kimyoviy element. 3. Volfram po'latlarni legirlashda, yeyilishga chidamli va issiq bardosh qattiq qotishmalar olishda keng qo'llanadi ("Politexnika lug'ati"). 4. Mol go'shtida esa birlashma to'qima ko'p va dag'al bo'lgani uchun qattiq va hazm bo'lishi qiyin (N. Ismoilov, Kasallarni parvarish qilish). 5. Dalabop qattiq tirinkadan besh-olti metr olaman, dedi Xo'jahmon (A. Ubaydullayev, Hayot oqimi). Berilgan misollarning barchasida qattiq leksemasi qotmoq fe'lining derivati sifatida fizik xossani bildiradi. "Tashqi fizik ta'sirga chidamlilik" qo'llangan so'zlarning barchasining umumiy mohiyatini ifodalaydi. Biroq, misollarga e'tibor qilinsa, 5-gapda qo'llangan qattiq so'zining ma'nosi birikuvchining xususiyati bilan bog'liq ravishda boshqacha anglashiladi. Zero, gazmolning qattiqligi metallning qattiqligidan farqlanadi. Gazmol metall, tosh, qotishmalar kabi "egilmas-bukilmas" darajada "qattiq emas". Bunda qattiqlik "fizik chidamlilik" mazmunida namoyon bo'lgan. Xuddi shu ma'no "qattiq" leksemasining bosh va metaforik ko'chma ma'no oralig'idagi bo'g'indir. Shu nuqtada miqdoriy o'zgarishlar sifat o'zgarishiga o'tadi.

Aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, metaforizatsiya, avvalo, inson va til, til va borliq, borliq va borliq dialektikasining namoyon bo'lishidir. Bu aloqadorlik obyektiv ravishda mavjud bo'lishi ham, insoniyatning milliy nigohi asosida subyektiv tusda namoyon qilinishi ham mumkin. Bu aloqadorlik predmet va belgi, belgi va predmet, predmet va predmet, belgi va belgi aloqadorligi ko'rinishida namoyon bo'lib, "belgi" ma'nosini ifodalovchi birliklarning metaforik belgi ifodalashi, "predmet" ma'noli birliklarning metaforik "belgi" ifodalashi turlarida ham voqelanishi mumkin.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Клобуков П.Е. Метафора как концептуальная модель формирования языка эмоций // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Ред. В.В. Красных, А. И. Изотов. - М.: Филология, 1997. Вып..
2. Хо‘jamqulov A. O‘zbek tilida metaforaning tasniflanishiga doir. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20-yilligiga bag‘ishlab chikarilgan ilmiy makolalar to‘plami. Lingvist. 2-kitob. T. Akalemnashr. 2011.
3. Shirinova N. A. O‘zbek tilida belgi-xususiyat va predmetlik manolarining farqlanishida graduonimik qatorlar : Toshkent, 2010.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
5. Suyarova Nargiza Yuldoshevna. Comparative aspects of metaphorical terms and their translations from English into Uzbek. NeuroQuantology 2022; 20(12).
6. Suyarova Nargiza Yuldoshevna. “Belgi” denotativ semali metaforalarning tasnifi, kognitiv strukturasi va leksikografik talqini. Filol. fan. ... fals. dokt. (PhD) dis. avtoref. – Qarshi, 2021.